ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Safarova Marjona Akmal qizi

ToshDO‘TAU Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik

2-kurs magistranti

Safarovam003@gmail.com

https://orcid.org/0009-0003-6910-8511

“TO‘QCHILIK VA YO‘QCHILIK” ROMANIDAGI STILISTIK VOSITALAR TARJIMASI TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy tarjima jarayonida stilistik moslikni ta’minlash muammosi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, tarjimada muallif uslubini, nutq ohangini hamda badiiy ifoda vositalarini qayta yaratish masalalari yoritiladi. Tadqiqot obyekti sifatida Ernest Heminguey qalamiga mansub “To‘qchilik va yo‘qchilik” asari va uning Qandilat Yusupova tomonidan amalga oshirilgan o‘zbekcha tarjimalari (2020 va 2023-yillar) tanlab olingan. Tahlil davomida sintaktik-stilistik (ellipsis, anafora, parallelizm) hamda semantik-stilistik vositalar (metafora) misollar asosida solishtirma usulda ko‘rib chiqiladi. Natijada tarjimada stilistik moslikni saqlash darajasi, yuzaga kelgan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlanadi. Tadqiqot xulosalari badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, stilistik moslik, ellipsis, anafora, parallelizm, metafora, funksional ekvivalentlik, Heminguey uslubi.

KIRISH

Badiiy tarjimada matn mazmunini to‘g‘ri yetkazish bilan birga uning stilistik xususiyatlarini saqlash muhim ahamiyatga ega. Har bir adib o‘ziga xos uslub, nutq ohangi va badiiy vositalar orqali asarga estetik qiymat bag‘ishlaydi. Shu sababli tarjimon nafaqat mazmunni, balki ushbu uslubiy jihatlarni ham qayta yaratishi zarur. Aks holda tarjima asarning badiiy ta’sirini yo‘qotishi mumkin. Ayniqsa, Ernest Heminguey kabi ixcham va chuqur ma’noli uslubga ega yozuvchilar ijodini tarjima qilishda stilistik moslik alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu masala tarjima misollarida tahlil qilinadi.

Badiiy tarjima jarayonida matn mazmunining ekvivalent tarzda uzatilishi bilan bir qatorda, uning stilistik xususiyatlarini qayta yaratish masalasi ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Stilistik moslik tushunchasi tarjima matnida asl asarga xos bo‘lgan uslubiy belgilar, nutq ohangi, badiiy ifoda vositalari hamda muallifning individual ijodiy uslubini imkon qadar saqlab qolishni nazarda tutadi. Ushbu omil e’tibordan chetda qolgan holatlarda tarjima matni semantik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, badiiy-estetik ta’sirini yo‘qotishi mumkin.

Stilistik moslik, avvalo, muallif uslubining yaxlitligini ta’minlash bilan bog‘liq. Har bir yozuvchining badiiy nutqi o‘ziga xos stilistik tizim asosida shakllanadi va bu tizim leksik tanlov, sintaktik qurilish hamda badiiy vositalarning qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. Shu sababli tarjimon matnni nafaqat til birliklari darajasida, balki uslubiy-funksional yaxlitlik nuqtayi

nazaridan ham talqin qilishi lozim. Aks holda tarjima muallif nutqining tabiiyligini buzishi yoki uni sun'iy badiiylashtirishga olib kelishi mumkin.

Tarjimada stilistik moslikni ta'minlash jarayoni tillararo farqlar bilan chambarchas bog'liq murakkab masaladir. Turli tillarning grammatik tuzilishi, stilistik imkoniyatlari va madaniy kontekstlari bir-biridan farq qilgani sababli ayrim stilistik birliklar bevosita tarjimaga mos kelmasligi mumkin. Bunday holatlarda tarjimon so'zma-so'z yondashuvdan ko'ra, funksional-ekvivalent usulni tanlab, asl matndagi stilistik ta'sirni boshqa til vositalari orqali qayta yaratishga intiladi[1].

Ernest Heminguey ijodiga mansub asarlarni tarjima qilishda stilistik moslik masalasi ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Yozuvchining lakonik uslubi, yashirin psixologik qatlamlarga boy tasviri hamda bilvosita ifoda vositalari tarjimada ortiqcha izoh va kengaytmalarsiz berilishini talab etadi. "To'qchilik va yo'qchilik" romanida stilistik vositalar mazmunni bevosita ochib bermay, balki o'quvchini tahlil va mushohadaga undovchi yashirin ma'nolarni yaratadi. Shu bois ushbu vositalarning tarjimada qay darajada mos ifodalangani asarning badiiy qiymatini belgilovchi muhim mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Endi esa tarjimon Qandilat Yusupova ushbu tarjimonning stilistik o'ziga xosligini qay darajada saqlab qolgani haqida gaplashsak. Asar tarjimasi 2020 va 2023- yillarda nashr etilgan bo'lib, ikkala nashr uchun ham tarjimon bitta Qandilat Yusupovadir. Ilk nashrning nomi "Borlik va yo'qlik" bo'lib, u ikki qismdan iborat, ammo ikkinchi nashrd esa "To'qchilik va yo'qchilik" nomi ostida uch yildan so'ng nashrdan chiqqan. Ikkala nashrda ham yozuvchining stilistik uslubiga iloji boricha sodiqlikni saqlab qolishga harakat qilingan.

Tahlil davomida asosan sintaktik-stilistik hamda semantik-stilistik vositalar tahlil qilinadi. Sintaktik stilistik vositalar bu sintaktik darajadagi vositalar jumla tuzilishi va nutq qurilishi bilan bog'liq bo'lib, matn ritmi va ohangini belgilaydi. Ellipsis - ayrim jumla bo'laklarining tushirib qoldirilishi orqali nutqning tabiiyligi va ixchamligini ta'minlaydi. Anafora - biror so'z, ibora yoki jumlaning qator boshida takrorlanishi orqali fikrni kuchaytirish, ritm va emotsional ta'sir yaratishga xizmat qiluvchi stilistik vosita[2].

Parallelizm — jumla yoki gap tarkibidagi sintaktik tuzilmalarni takrorlash orqali ritm, uyg'unlik va emotsional ta'sir yaratishga xizmat qiluvchi stilistik vosita. Bu kabi vositalar Heminguey uslubiga xos soddalik va qisqalikni yuzaga chiqaradi. Semantik–stilistik vositalar. Ushbu guruhga kiruvchi vositalar matndagi yashirin ma'no va ramziy qatlamni yaratishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda eng ko'p uchraydigan tasviriy vosita – metaforadir. Arastu bu atamani keng ma'noda qo'llagan. Faylasuf o'zining "Ritorika" asarida quyidagi fikrni ifodalaydi: "Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi " John Stephen esa "Metafora - biror narsa yoki harakatni tushuntirish maqsadida ma'lum bir boshqa obyekt xususiyatidan foydalanadigan adabiy tushuncha" – deb ta`riflaydi[3].

Sintaktik-stilistik vositalar tahlili.

[1] Vinay, J. P., & Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English. Amsterdam: John Benjamins, p. 32.

[2] Leech, G., & Short, M. (2007). Style in Fiction (2nd ed.). London: Pearson. p. 83.

[3] O'zbek tili stilistikasi.T.:O'qituvchi,1983, -B.246

Ellipsis

Original “Put out any time you want,” I told Johnson

Ushbu jumla ingliz tilida stilistik jihatdan o‘zgartirilgan gap qurilmasi bo‘lib, u Ernest Heminguey ijodiga xos ixcham va dialogik nutq uslubini namoyon etadi. Ingliz tilidagi odatiy gap modeli ega + modal fe’l + asosiy fe’l shaklida ifodalanishi kerak bo‘lsa-da, mazkur holatda bu tuzilma qisqartirilgan va o‘zgartirilgan holda qo‘llangan. Gapda ega (you) va modal fe’l (can) tushirib qoldirilgan, natijada fikr elliptik konstruktsiya orqali berilgan.

Asosiy fe’lning gap boshiga chiqarilishi natijasida stilistik maqsadga xizmat qiluvchi ellipsis elementi yuzaga kelgan. Vaqt holati bo‘lgan any time you want birikmasining fe’l bilan birgalikda oldingi pozitsiyaga chiqishi gapdagi pragmatik urg‘uni kesimga yo‘naltiradi va gapning buyruqdan ko‘ra ruxsat yoki erkinlik berish ohangini kuchaytiradi. Aslida esa mazkur fikr “You can put out any time you want” shaklida ifodalanishi mumkin edi, ammo fe’lning oldinga chiqarilishi va yordamchi unsurlarning tushirilishi natijasida gap og‘zaki nutqqa xos soddalik va tabiiylik kasb etgan.

Birinchi tarjima: “Endi qarmoqni tashlasangiz bo’ladi ”[4], - dedim Jonsonga

Ikkinchi tarjima: “Xohlagan vaqtingiz ov qilavering”[5], -ruxsat berdim Jonsonga.

2020-yilgi tarjimada biroz kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. “Endi” so‘zi vaqtni cheklab qo‘ygan, asliyatda esa vaqtda cheklov yo‘q; “qarmoqni tashlasangiz bo‘ladi” esa ruxsatdan ko‘ra ko‘proq ko‘rsatma yoki tavsiyani ifodalagan. To‘g‘ri, bu variantda mazmun mosligi saqlangan, lekin stilistik va pragmatik jihatdan asliyatdan uzoqlashgan.

2023-yildagi nashrda esa “xohlagan vaqtingizda” asliyatda “any time you want” jumlasini saqlab, vaqtga cheklov qo‘ymaganini guvohi bo‘lamiz, biroq tarjimada nisbiy kamchilik sifatida “ov qilavering” jumlasini asliyatdagi “put out” ya’ni qarmoqni tashlamoq ma’nosidan biroz toraygan holatda ifodalangan. Endi ushbu tarjimada esa pragmatik ma’noni to‘laroq saqlagan va asliyat ruhiga yaqinroq tarjima qilingan.

Menimcha, jumla “Istagan paytingiz qarmoqni tashlasangiz bo‘ladi” holatida tarjima qilinsa, ruxsat ma’nosini aks ettirib, vaqtga cheklov qo‘ymasdan, asliyat ruhiyatini saqlagan holda namoyon bo‘la oladi.

Anafora.

Asliyat: There was to see was the two smacks off to the westward headed in, and way back the dome of the Capitol standing up white out of the edge of the sea. There was some gulfweed on the Stream and a few birds working, but not many.

Asliyatdagi ushbu gapda anaforani biz “there was” grammatik vositasi ikkita gapda takror gap boshida ishlatilishi orqali paydo bo’lgan. Aslida ingliz tilida ushbu vosita “mavjudlik” ni anglatadi. Biroq mazkur kontekstda u oddiy mavjudlikni emas, balki vizual kadrlarni birma-bir

[4] E. Heminguey (2020). Borlik va yo’qlik (Q. Yusupova, tarj.). 14-b.

[5] E. Heminguey (2023). To‘qchilik va yo‘qchilik (Q.Yusupova, tarj). 18-b.

ochish funksiyasini bajaradi. Ya'ni kuzatuv orqali voqelik ketma-ket ifodalanishiga "there was" xizmat qilgan.

*Birinchi tarjima:*Ko'zim ilg'agani- G'arbga tomon suzib ketayotgan ikki nafar baliq ovlovchi, dengiz chetida oppoq tovlanib turgan Kapitoliy gumbazi bo'ldi[6].

Ikkinchi tarjima: Ko'zim ilg'agan dengiz dunyosi – g'arbga tomon suzib ketayotgan ikki nafar baliq ovlovchi qayigu, ortimda, dengiz dengiz chetida oppoq tovlanib turgan Kapitoliy gumbazi bo'ldi[7].

Ikkala yildagi tarjimalarda ham anafora saqlanmagan. 2023-yildagi tarjimada biroz uzunroq va matn tasviriy ifodalangan. 2020-yil tarjimasi esa bundan-da soddalashtirilgan, natijada ikkala tarjimada ham asliyatdagi "there was" ritmik takrorlanishi yo'qolgan, ammo semantik jihatdan mazmun yetkazilgan.

Parallelizm.

Original: "You put her ahead and hook her up and head her out to the sea."

Asliyatdagi jumla sintaktik parallelizmning aniq namunasi bo'lib, unda uchta fe'l bir xil grammatik model asosida ketma-ket qo'llangan. Mazkur konstruksiya orqali harakatlarning bosqichma-bosqichligi, izchilligi va dinamikasi ifodalangan Fe'llarning bir xil shaklda kelishi nutqqa ritmik uyg'unlik bergan hamda buyruq ohangini kuchaytirgan.

Birinchi tarjima: "Kemani oldinga surib, ochiq dengiz tomon olg'a suzib ketasan"[8].

Ikkinchi tarjima: "Kemani oldinga burib, ochiq dengiz tomon suzib ketasan"[9].

Birinchi tarjimada originaldagi uchta ketma-ket ifodalangan harakat ikki fe'lga qisqartirilgan. "Hook her up" harakati fe'li tushirib qoldirilgan, "head her out to the sea" esa "dengiz tomon suzib ketasan" shaklida umumlashtirilgan. Natijada, o'zbek tilida parallelizm saqlanmagan, fe'llar soni va ketma-ketligi buzilgan, originaldagi harakatlarning bosqichma-bosqichligi yo'qolgan. Shuning uchun ushbu tarjima mazmunni qisman yetkazadi, biroq Hemingueyga xos parallel sintaktik tuzilma yo'qolgani yaqqol namoyon bo'ladi.

2023-yildagi variantda ham harakatlar soni kamaytirilgan, originaldagi uchta fe'l ikki fe'l bilan almashtirilgan. "Hook her up" fe'li bu yerda ham tarjimada aks ettirilmagan. Bundan tashqari, "put her ahead" fe'lining ma'nosi "burib" so'zi bilan qisman o'zgargan, natijada, parallelizm to'liq saqlanmagan, harakatlar tengligi va izchilligi buzilgan hamda ma'no umumiy tarzda berilgan. Bu tarjima ham stilistik jihatdan soddalashtirilgan va manba tilidagi fe'lli sintaktik parallelizmni aks ettirmagan.

[6] E. Heminguey (2020). Borlik va yo'qlik (Q. Yusupova, tarj.). 44-b.

[7] E. Heminguey (2023). To'qchilik va yo'qchilik (Q.Yusupova, tarj). 48-b.

[8] E. Heminguey (2020). Borlik va yo'qlik (Q. Yusupova, tarj.). 49-b.

[9] E. Heminguey (2023). To'qchilik va yo'qchilik (Q.Yusupova, tarj). 53-b.

Taklif etilayotgan variant - “Uni oldinga sur, harakatlanishga tayyorla va dengiz tomon yo‘naltir” - sintaktik parallelizmni tiklashga xizmat qiladi. Bu yerda barcha fe’llar buyruq maylida, grammatik jihatdan teng shaklda berilgan. Shunday yo‘l bilan asliyatdagi uch bosqichli harakat tizimi, buyruq ohangi hamda fe’lli parallelizm imkon qadar adekvat tarzda qayta ifodalanadi. Natijada semantik to‘liqlik bilan birga, manba matnning stilistik xususiyatlari ham saqlangan.

Metafora.

Original: “You yellow rat-eating aliens.”

Manba tilidagi keltirilgan matnda insonlarni kalamush iste’mol qiladigan ajnabiylarga o‘xshatilgani sababli kesatiqli metafora yuzaga kelgan. Gapda “alien”, “rat-eating”, “yellow” komponentlari ko‘chma ma’noda ishlatilib, odamlarni insoniylikdan chiqarib ko‘rsatish, kamsitish va haqorat qilish vazifasini bajargan.

Birinchi tarjima: “Hoy, kalamushxo‘r, sariq ajnabiylar”[10].

Ikkinchi tarjima: “Hoy, kalamushxo‘r, sariq ajnabiylar”[11].

Birinchi va ikkinchi tarjimalar mazmunan bir xil bo‘lib, har ikkala holatda ham metafora to‘liq saqlangan va tarjimon yozuvchi stilistik uslubiga sodiq qolgan. Semantik jihatdan tarjima mos, ya’ni rat-eating - kalamushxo‘r; aliens – ajnabiylar deya to‘g‘ri ifodalangan. Stilistik jihatdan ham tarjima adekvatlikni saqlab qolgan: haqorat, keskinlik va emotsional rang xuddi asliyat kabi aks ettirilgan, shu bilan birga gap boshidagi “hoy” undovi og‘zaki, agressiv ohangni kuchaytirib, asl matn ruhiga mos tasvirlangan.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy tarjimada stilistik moslikni saqlash asarning badiiy-estetik qiymatini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Ernest Heminguey asari tarjimalari tahlili jarayonida aniqlanishicha, ayrim holatlarda mazmuniy ekvivalentlik saqlangan bo‘lsa-da, sintaktik va stilistik vositalarning to‘liq qayta yaratilmasligi natijasida muallif uslubiga xos jihatlar qisman yo‘qolgan. Xususan, ellipsis, anafora va parallelizm kabi vositalar tarjimada ba’zan soddalashtirilgan yoki tushirib qoldirilgan.

Shu bilan birga, ayrim misollarda tarjimon tomonidan stilistik moslikni saqlashga muvaffaqiyatli erishilganini ham kuzatish mumkin. Bu esa tarjimada funksional-ekvivalent yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tarjimon nafaqat matn mazmunini, balki uning uslubiy va emotsional ta’sirini ham qayta yaratishga intilishi zarur. Faqat shundagina tarjima asliyatga yaqin badiiy qiymat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arastu. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Hemingway, Ernest. To Have and Have Not. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1937.

[10] E. Heminguey (2020). Borlik va yo’qlik (Q. Yusupova, tarj.). 59-b.

[11] E. Heminguey (2023). To‘qchilik va yo‘qchilik (Q.Yusupova, tarj). 63-b.

3. Heminguey, Ernest. Borlik va yo‘qlik. Tarjimon: Q. Yusupova. – Toshkent, 2020.
4. Heminguey, Ernest. To‘qchilik va yo‘qchilik. Tarjimon: Q. Yusupova. – Toshkent, 2023.
5. Komissarov, V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskiye aspekty). – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
6. Nida, Eugene A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964.
7. Newmark, Peter. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.
8. Vinay, J.-P., Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English. – Amsterdam: John Benjamins, 1995.
9. Galperin, I. R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977.
10. Stephen, John. Language and Style. – London: Routledge, 1990.